

**SOLIQ TO'LASHDAN QOCHISHDA ZAMONAVIY FISKAL NAZORATI
INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

*Fayziyev Orifjon Olimovich
Davlat soliq qo'mitasi xodimi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, soliq ma'muriyatichiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan takomillashtirish va ularni samaradorligini baholash yo'llari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, tadqiqot doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq soliq tushumlari, interaktiv xizmat, samaradorlik, raqamli platforma, raqamli transformatsiya, usullar va vositalar, ilg'or axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, veb-xizmatlar, zamonaviy texnikalar, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish: Respublikamizda hozirgi davrda soliq siyosatining ustuvor yo'naliishlari sifatida budget daromadlarini oshirish, soliqqa tortish ma'muriyatichiligini takomillashtirish orqali mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish qaraladi. Mahsulotlarning realizatsiya bahosini sun'iy ravishda pasaytirish natijasida soliq ba'zasi yo'qotilishini oldini olish;

"bir kunlik firma"lar faoliyatiga to'laqonli barham berishni ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ro'yxatdan o'tish bosqichida amalga oshirish mexanizmini yo'lga qo'yish;

Eksportyor korxonalar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasi o'rnini qoplashning noqonuniy sxemalaridan foylanish va ushbu sxemalarni bartaraf etish uchun takliflar;

jismoniy shaxslar tomonidan to'lovlarini plastik kartochkalari orqali amalga oshirish mexanizmi tahlili va mazkur mexanizmning to'laqonli soliqqa tortish tizimi takomillashtirish;

tovarlar importini amalga oshirib, xufiyona faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tahlil qilgan holda bartaraf etish choralarini ko'rish;

Olingan daromadlarni ustav jamg'armasiga yo'naltirish orqali soliqdan qochish holatlarni aniqlash va chora ko'rish bo'yicha taqdimotlar ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda bir qator olimlar hamda ekspertlar tomonidan mamlakatda xufiyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari hamda xufiyona iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining o‘sib borishiga nisbatan turli hil ilmiy yondashuvlar ilgari suriladi. Jumladan, Shvesiyalik iqtisodchi olim K.F.Becker tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o‘ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo‘lmaydigan qismi ekanligi ta’kidlanib, qaysiki ular rag‘batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko‘rsatishlarini ma’lum qilgan [2]. Xufiyona iqtisodiyotni yuzaga keltiruvchi sabablardan biri sifatida ispan olimi Ernando de Soto tarafдорлари mamlakatdagи qonunlarning “yomon”ligidadir deyishadi [3]. Ushbu qonunlar iqtisodiy aktiv faoliyatga sun’iy ravishda to‘siq bo‘lib, qonunga itoat qiladigan fuqarolarni xufiyona iqtisodiy faoliyat yurituvchi shaxslarga aylantirib qo‘yadi. Bu salbiy holatni bartaraf etish uchun esa, ular mamlakatda iqtisodiy faoliyat yuritish uchun byurokratiyani qisqartirish lozimligini ta’kidlaydilar. Iqtisodiyotni esa bosqichma – bosqich liberallashtirib borish tashabbusini ilgari surib, bu siyosatni firmalarni ro‘yxatga olish tartibini yengillashtirish, soliqlar yukini yengillatish, tekshiruvchi instansiylar sonini qisqartirish orqali amalga oshirishni taklif etadilar. Rus iqtisodchi olimlari A.K.Bekryashev va A.K.Belozerovlar tomonidan xufiyona iqtisodiyotni keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadilar: - bozor to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq emasligi; - bozorning jamiyat manfaati uchun faoliyat yuritmasligi; - bozorning tashqi salbiy omillarga qarshi samarali tura olmasligi; - bozorning ijtimoiy tengsizlikka qarshi tura olmasligi; - qarorlar qabul qilishda bozor to‘g‘risida ob’ektiv ma’lumotlarning yetishmasligi; - siyosiy jarayonlarning mukammal emasligi; - davlat apparati ustidan nazorat qilish imkoniyatining cheklanganligi; - anonimlik [4]. Shuningdek, boshqa rus olimlari tomonidan xufiyona iqtisodiyotni yuzaga keltiruvchi asosiy sabablaridan quyidagilarni keltirib o‘tiladi: - hukumat tarafidan olib borilayotgan nooqilona siyosat; - nazorat qiluvchi organlarda korrupsiyaning avj olganligi; - mamlakatda ishsizlikning ortib borishi, unga qarshi tartibga solish mexanizmi samaradorligining pastligi; - boshqaruvdagi xo‘jasizlik; - legal iqtisodiy infratuzilmaning yetishmasligi; - tarixiy omillar; - jamiyatning yopiqligi va h.k.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida xufiyona iqtisodiyotning yuzaga kelish sabablari hamda unga ta’sir etuvchi omillarga nisbatan olimlar hamda ekspertlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Xufiyona iqtisodiyotning yuzaga keltiruvchi iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy muammolar va ularning oqibatlari to‘g‘risida, shuningdek olimlar hamda ekspertlar tomonidan berilgan nazariy qarashlarni o‘rganish

orqali, xufiyona iqtisodiyotning mamlakat milliy iqtisodiyotiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy jihatlari yoritildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatda xufiyona iqtisodiyotni yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi yana bir omil sifatida iste'molchilar tomonidan tovar, xizmat yoki ishlarni olayotgan jarayonlarida o'z foydalarini ko'zlab qonunlarni aylanib o'tishga harakat qilishlarida ko'rish mumkin. Misol sifatida korxonada ishlovchi xodimlar uchun uy – joy bilan ta'minlanish jarayoni boshlandi. Shu jarayonda ayrim xodimlar chiqadiki, ularga uy - joy berilishi mumkin emas, lekin ayrim xodimlar shu jarayonda o'ylaydiki nima qilsam shu uyni qo'lga kiritaman degan fikrda turli hil noqonuniy hatti – harakatlarni amalga oshiradilar.

Xufiyona iqtisodiy faoliyatni yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillardan yana biri sifatida ishlab chiqaruvchining yaqqol monopol bo'lishga harakat qilishida ko'rildi. Bu bilan yakka ishlab chiqaruvchi bozorda narx siyosatini tanxo belgilab, yuqori daromad olishga harakat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 595-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga (I) muddatidan qat'iy nazar barcha soliqlardan qarzi bo'lganda soliq xavfining yuqori darajasi toifasiga kiritilishi hamda (II) ONKMda ro'yxatdan o'tgan jami cheklardagi summalarining 10 foizdan ortiq qismiga o'zgartirish kiritilganda QQS guvohnomasining bekor bo'lishi to'g'risidagi yangi mezonlarni kiritish nazarda tutilmoqda.

Mazkur mezonlar QQS to'lovchilarni hisobga olish dasturiy mahsuliga kiritilgan (holati "neaktivnyiy").

Yangi mezonlarni joriy etilishi natijasida (I) 37 877 ta (22,3 %) soliq to'lovchilar soliq xavfining yuqori darajasiga hamda (II) 2 799 ta (1,6 %) soliq to'lovchilarning QQS guvohnomasini bekor bo'lishiga olib keladi.

Norasmiy faoliyat yuritayotgan shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish hamda kamida 450 mingta jismoniy shaxslar faoliyatini legallashtirish (norasmiy faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarni 2022-yilda o'zini o'zi band qilishga o'tkazish grafigi tasdiqlanib, qo'mitaning 2022-yil 25-yanvardagi 20/5-30458-sonli xati orqali hududiy davlat soliq xizmati organlariga topshiriq xati yuborildi.). Joriy yilning 23-iyun holatiga 450 mingta belgilangan reja 688,5 mingtaga yoki 153,0 foizga bajarildi. Shundan, hududiy davlat soliq xizmati organlari tomonidan norasmiy faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarga bank kreditlari olish, imtiyozli kreditlarni olishga imkoniyat mavjudligini tushuntirish va profilaktik suhbat o'tkazish orqali 508 485 tasi yoki 73,9 foizi ro'yxatga olinishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonida 2022 yilda korxona va tashkilotlarda 450 ming nafar xodimlar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, ularga ish haqi hisoblash, ish haqidan soliqlar va ijtimoiy to'lovlar to'lanishiga amaliy yordam ko'rsatish belgilangan. Mazkur topshiriqdan kelib chiqib, joriy yilda 450,0 ming nafar norasmiy ish o'rinlarini

legallashtirish bo'yicha hududlar kesimida reja-grafik ishlab chiqilgan holda tasdiqlandi. Ushbu reja-grafik ijrosini so'zsiz bajarilishini ta'minlash yuzasidan hududiy davlat soliq boshqarmalariga topshiriq xati yuborildi.

Amalga oshirilgan ishlar va ko'rilgan choralar natijasida joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 128,9 mingta korxonada 383,1 ming nafar xodim legallashtirilib, yanvar-sentyabr oylari uchun belgilangan topshiriq ijrosi 106 %ga, yillik topshiriq reja ijrosi esa 85 % ga bajarilishi ta'minlandi.

Joriy yilning 1 sentyabr holatiga Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash avtomatlashtirilgan dasturi orqali 46 268 ta korxonalarda 7 593,4 mlrd.so'mlik soliq xavfi aniqlandi.

Xususan,

-soliq xavfi yuqori deb baholangan (1 595,9 mlrd.so'm) 1 642 ta korxonalarga soliq auditi tayinlangan, shundan 559 tasiga 2 015,3 mlrd so'm qo'shimcha soliqlar hisoblanib, 691,1 mlrd.so'mi undirildi;

- soliq xavfi o'rta deb baholangan (5 599 mlrd.so'm) 21 685 ta korxonalarda kameral soliq tekshiruvi o'tkazilmoxda, dastlabki tekshiruvlarga muvofiq 17 052 ta sub'ektda tekshiruv yakunlanib, 2 944,1 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan va 713,0 mlrd so'mi undirildi;

- shuningdek, 397,8 mlrd.so'm soliq xavfi mavjud 22 941 ta korxonalarga kamchiliklarni tekshiruvlarsiz bartaraf etish uchun amaliy yordam ko'rsatildi.

Bundan tashqari, 483 ta sub'ektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilgan bo'lib, tekshiruv natijasida 57 729,9 mln.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan va 19 597,2 mln so'mi undirilgan.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-avgust oylarida "Avtokameral" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kameral soliq tekshiruvlardan oldingi tahlillarda va tekshiruv jarayonida aniqlangan tafovutlar yuzasidan 48,4 mingta sub'ektlar ixtiyoriy ravishda aniqlashtirilgan soliq hisobotlarini taqdim etib, byudjetga qo'shimcha 3 579,6 mlrd.so'mlik soliqlar va yig'imlar hisoblangan bo'lsa, shunga ko'ra, xato va kamchiliklarni mustaqil bartaraf etgan sub'ektlarga nisbatan 715,0 mlrd.so'mlik moliyaviy jarimalarni qo'llashning oldi olindi.

"Soliq hamkor" jamoatchilik nazorati tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar asosida 50 mingta sub'ektda soliq tekshiruvlari o'tkazilgan va 41,7 mingtasiga jami 137,9 mlrd so'mlik moliyaviy jarimalar hisoblanib, shundan 127,9 mlrd so'mi undirilgan.

Soliq to'lovchilarga uzluksiz xizmat ko'rsatish va zamonaviy soliq ma'murchiligi chaqiriqlariga javob beradigan tizim yaratish maqsadida, ma'lumotlar bazasi 24 terrabaytdan (tb) 484 tb.ga yetkazildi yoki 20 baravarga oshdi.

(Bu o'z navbatida, soliq to'lovchilarga (i) ro'yxatdan o'tish, (ii) soliq rejimini tanlash, (iii) byudjet bilan munosabatlarini onlayn kuzatish, (iv) hisobtlarni

shakllantirish va (v) topshirish, (vi) soliqlarni to‘lash, (vii) maslahat olish va (viii) yozishmalarni shaxsiy kabinetni orqali dunyoning istalgan burchagidan soliq majburiyatlarini elektron tarzda bajarish imkoniyatini berdi).

Shuningdek, soliq to‘lovchilar yengilliklar yaratish maqsadida “soliqchi ko‘makchi” tamoyili asosida bugungi kunda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan 50 ga yaqin interaktiv xizmatlar ishlab chiqildi.

Soliqlarni ixtiyoriy to‘lash darajasi 83 foizdan 95 foizga chiqarildi.

Yashirin iqtisodiyotni jilovlash hisobiga soliq bazasini kengaytirish maqsadida, zamonaviy soliq ma’murchilining yangi instrumentlari - Elektron hisobvaraq-fakturalari, onlayn nazorat kassa mashinalaridan foydalanish, tovarlarni markirovkalash, elektron shartnomalarini tizimlari joriy etildi.

Soliq organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash (KPI) mezonlari ishlab chiqilib, rag‘batlantirishning yangi tizimi joriy etildi.

Xulosa va takliflar.

Soliq nazorati tadbirdari natijasida (sayyor soliq tekshiruvi, soliq audit va boshqalar) korxonalar tomonidan norasmiy ishchi kuchidan foydalanayotganligi aniqlangan taqdirda, korxonaga nisbatan har bir norasmiy ishchisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida jarima qo‘llanilishini joriy qilish, shuningdek ushbu korxonaga 5 yil davomida davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tender va tanlovlarda qatnashish huquqidan mahrum qilish.

Davlat bojxona qo‘mitasi Respublika hududiga import qilgan va bojxona omborlaridan olib chiqilgan tovarlarning qaysi sub’ektlar tomonidan olib chiqilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga real vaqt rejimida (online) taqdim etish majburiyatini yuklash. (Mavjud tizimini takomillashtirish YeEISVO)

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Kristina F.B. “The Informal Economy” march 2004, Shvedskiy Mejdunarodnyiy agentstvo sotrudnichestva razvitiya SE-105 25 Stokholma Shvesiya.
3. <http://ie.boom.ru/Latov/Monograph/Contents.htm>;
4. http://www.iicas.org/articles/library/libr_rus_22_4_00_1te.htm;
5. [http://www.libertarium.ru/libertarium/way.Bekryashev_A.K., Belozerov_I.P._Tenevaya_ekonomika_i_ekonomiceskaya_prestupnost/_i_kriminalnoy_ekonomiki._Ponyatie_i_struktura_tenevoy_ekonomiki](http://www.libertarium.ru/libertarium/way.Bekryashev_A.K.,_Belozerov_I.P._Tenevaya_ekonomika_i_ekonomiceskaya_prestupnost/_i_kriminalnoy_ekonomiki._Ponyatie_i_struktura_tenevoy_ekonomiki).
6. <http://www.finbook.biz/description.html?prm=149>
7. <http://newasp.omskreg.ru/bekryash/ch1p10.htm>